QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.018

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY BAHOLASH TEXNOLOGIYALARINING METODIK ASOSLARI

Kasimova Odinaxon Alimjanovna
TMC instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi (PhD), v.b.dotsenti
Qo‘chqorboyeva Anbarjon Qosimboy qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistri
E-mail: kasimovaodina350@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’limda zamonaviy baholash texnologiyalarining metodik asoslari ko‘rib chiqiladi. Amaldagi me’yoriy hujjat hamda 2022–2026-yillardagi mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida diagnostik, shakllantiruvchi (formativ), yakuniy (summativ), mezonli, tabaqalashtirilgan va raqamli baholashning mohiyati va funksiyalari ochib berilgan. Boshlang‘ich sinflarda baholash amaliyotidagi asosiy muammolar aniqlangan: yakuniy bahoning ta’lim jarayonini baholashdan ustunligi, baholash mezonlarining yetarlicha shaffof emasligi va o‘qituvchilarning shakllantiruvchi hamda raqamli baholashga tayyorgarligining cheklanganligi. Zamonaviy baholashning metodik tamoyillari asoslab berilgan, baholash texnologiyalarining maqsadi, taqqoslash etaloni, baholash subyekti, shakli va vositalariga ko‘ra tasnifi taklif etilgan. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan shakllantiruvchi baholash usullari tavsiflangan, mezon va deskriptorlarni ishlab chiqish algoritmi yaratilgan, PIRLS yondashuvi asosida matnni tushunishni baholash uchun rubrika namunasi keltirilgan. Boshlang‘ich ta’limda baholash texnologiyalari metodik asoslarining tuzilmaviy modeli taklif etilgan. Natijalardan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirishda, shuningdek, o‘quvchilarning o‘quv natijalarini baholash tizimini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, baholash texnologiyasi, shakllantiruvchi baholash, yakuniy baholash, mezonli baholash, deskriptor, rubrika, o‘z-o‘zini baholash, raqamli baholash, PIRLS.

Abstract. The article examines the methodological foundations of modern assessment technologies in primary education. Based on an analysis of the current regulatory document and national and foreign research published in 2022–2026, the essence and functions of diagnostic, formative, summative, criteria-based, differentiated and digital assessment are revealed. The main problems of assessment practice in primary grades are identified: the predominance of the final grade over the assessment of the learning process, insufficient

transparency of assessment criteria, and teachers’ limited readiness for formative and digital assessment. Methodological principles of modern assessment are substantiated, and a classification of assessment technologies by purpose, reference standard, assessing subject, form and tools is proposed. Formative assessment techniques adapted to the age characteristics of younger schoolchildren are described, an algorithm for designing criteria and descriptors is developed, and a sample rubric for assessing reading comprehension based on the PIRLS approach is presented. A structural model of the methodological foundations of assessment technologies in primary education is proposed. The results can be used by primary school teachers, in pre-service and in-service teacher training, and in improving the system for assessing pupils’ learning outcomes.

Keywords: primary education, assessment technology, formative assessment, summative assessment, criteria-based assessment, descriptor, rubric, self-assessment, digital assessment, PIRLS.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы современных технологий оценивания в начальном образовании. На основе анализа действующего нормативного документа, а также отечественных и зарубежных исследований 2022–2026 годов раскрыты сущность и функции диагностического, формирующего, итогового, критериального, дифференцированного и цифрового оценивания. Выявлены основные проблемы практики оценивания в начальных классах: преобладание итоговой отметки над оцениванием процесса обучения, недостаточная прозрачность критериев оценивания и ограниченная готовность учителей к формирующему и цифровому оцениванию. Обоснованы методические принципы современного оценивания, предложена классификация технологий оценивания по цели, эталону сравнения, субъекту оценивания, форме и средствам. Описаны приёмы формирующего оценивания, адаптированные к возрастным особенностям младших школьников, разработан алгоритм конструирования критериев и дескрипторов, представлен образец рубрики для оценивания понимания текста на основе подхода PIRLS. Предложена структурная модель методических основ технологий оценивания в начальном образовании. Результаты могут быть использованы учителями начальных классов, в подготовке и повышении квалификации педагогов, а также при совершенствовании системы оценивания учебных результатов учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, технология оценивания, формирующее оценивание, итоговое оценивание, критериальное оценивание, дескриптор, рубрика, самооценивание, цифровое оценивание, PIRLS.

KIRISH. Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarda o‘quvchilar o‘quv natijalarini baholash tizimi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Baholash nafaqat o‘zlashtirish darajasini qayd etish vositasi, balki o‘quv jarayonini boshqarish, o‘quvchining rivojlanishini kuzatish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmi hamdir. PIRLS, TIMSS, PISA kabi xalqaro baholash tadqiqotlari milliy ta’lim tizimidagi o‘quvchilar bilimini

xolis baholash hamda ta’lim islohotlari yo‘nalishlarini belgilash uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda [11, 31–33].

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida baholash tartibi bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 4-fevraldagi 1-mh-son buyrug‘i bilan reyting tizimi 5–11-sinflarga tatbiq etilib, unda formativ va summativ baholashning aniq mexanizmi belgilandi: har bir o‘quvchi chorak davomida kamida to‘rt marta 1–10 ballik shkala asosida formativ baholanadi, choraklik natija esa 100 ball doirasida formativ baholash (10 ball), bob bo‘yicha summativ baholash (50 ball) va chorak yakunidagi summativ baholash (40 ball) yig‘indisidan iborat bo‘ladi [1]. Biroq mazkur hujjat 1–4-sinflarni qamrab olmaydi. Holbuki, aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchining o‘qishga munosabati, o‘quv motivatsiyasi va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmasining poydevori qo‘yiladi. Bu esa boshlang‘ich sinflarda zamonaviy baholash texnologiyalarini qo‘llashning metodik asoslarini ilmiy jihatdan asoslashni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang‘ich ta’limda zamonaviy baholash texnologiyalarining metodik asoslarini nazariy jihatdan asoslash va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: zamonaviy baholash turlarining mohiyati va funksiyalarini aniqlash; boshlang‘ich sinflarda baholash amaliyotidagi muammolarni ilmiy manbalar asosida tahlil qilish; zamonaviy baholashning metodik tamoyillarini asoslash; formativ, mezonli va raqamli baholash texnologiyalarini qo‘llash metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot ob’ekti sifatida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘quv natijalarini baholash jarayoni, predmeti sifatida esa zamonaviy baholash texnologiyalarining metodik asoslari – tamoyillari, shakl, metod va vositalari olindi. Tadqiqotning manba bazasini amaldagi me’yoriy hujjat hamda 2022–2026-yillarda o‘zbek, rus, qozoq va ispan tillarida nashr etilgan ilmiy maqolalar, jumladan, ikki tizimli adabiyotlar sharhi va nazorat guruhi ishtirokidagi tajriba-sinov natijalari bayon etilgan tadqiqotlar tashkil etdi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

1. Zamonaviy baholash texnologiyasining mohiyati va turlari. Pedagogik adabiyotlarda “baho” va “baholash” tushunchalari farqlanadi: baho – baholash natijasining ball, belgi yoki og‘zaki izoh ko‘rinishidagi ifodasi bo‘lsa, baholash – o‘quvchi erishgan natijani belgilangan maqsad va mezonlar bilan solishtirish, uni tahlil qilish va keyingi ta’lim faoliyatini rejalashtirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan, baholash texnologiyasi deganda baholash maqsadi, mezonlari, vositalari, protseduralari va natijalardan foydalanish usullarining o‘zaro bog‘liq, kafolatlangan natijaga yo‘naltirilgan tizimi tushuniladi.

Zamonaviy baholash tizimining asosini formativ va summativ baholash nisbati tashkil etadi. Tadqiqotchilar ularning ta’rifi, maqsadi, metodlari, afzallik va cheklovlarini qiyoslab, ikkala turning bir-birini to‘ldirishini ta’kidlaydi [4, 50–53]. Formativ baholash

o‘quvchilarning bilish faoliyati, o‘quv motivatsiyasi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3, 172–174]. Scielo va Scopus bazalaridagi 45 ta maqolani PRISMA metodikasi asosida tahlil qilgan tizimli sharh natijalari formativ baholash o‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham foydali ekanini, o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va motivatsiyani saqlashga yordam berishini, biroq o‘qituvchilardan puxta tayyorgarlik talab etishini ko‘rsatgan [6, 335–346]. Formativ baholash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish vositasi sifatida ham samarali hisoblanadi [2, 187–201].

Ilmiy manbalar tahlili asosida boshlang‘ich ta’limda qo‘llanadigan zamonaviy baholash turlarini bir necha mezon bo‘yicha tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadval. *Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy baholash turlarining tasnifi*

Tasnif mezoni	Baholash turlari	Boshlang‘ich sinfdagi asosiy vazifasi
Maqsadiga ko‘ra	Diagnostik (dastlabki), formativ (shakllantiruvchi), summativ (yakuniy)	Boshlang‘ich holatni aniqlash, o‘qitish jarayonini tuzatish, bob yoki chorak natijasini qayd etish
Taqqoslash asosiga ko‘ra	Mezonli (kriterial), me’yoriy, individual	Natijani oldindan ma’lum mezon, sinf ko‘rsatkichi yoki o‘quvchining avvalgi natijasi bilan solishtirish
Baholovchi sub’ektga ko‘ra	O‘qituvchi tomonidan baholash, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash	O‘quvchini baholash jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish
Shakliga ko‘ra	Og‘zaki, yozma, amaliy, portfolio	Natijani turli faoliyat turlarida ko‘rsatish imkonini berish
Ifodalanishiga ko‘ra	Ballik, sifat (og‘zaki izoh, ramziy belgilar)	Yosh xususiyatlariga mos, rag‘batlantiruvchi qayta aloqa berish
Vositasiga ko‘ra	An’anaviy (qog‘oz), raqamli (onlayn test, interaktiv platformalar)	Tezkor qayta aloqa, natijalarni qayd etish va monitoring qilish

Jadvaldan ko‘rinadiki, zamonaviy baholash yagona usul emas, balki maqsadi, vositasi va sub’ekti turlicha bo‘lgan usullarning uyg‘un tizimidir. Xususan, differensial baholash har bir o‘quvchiga individual yondashuvni amalga oshiradi va portfolio, ramziy belgilar asosida baholash, og‘zaki qayta aloqa, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash kabi usullar orqali kichik yoshdagi o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini oshiradi [5, 61–63].

2. Boshlang‘ich sinflarda baholash amaliyotidagi muammolar. Ilmiy manbalar tahlili boshlang‘ich sinflarda baholash amaliyotida quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchidan, yakuniy natijani qayd etishga yo‘naltirilgan baholash ustunlik qilib, o‘quv jarayonining o‘zini baholash, ya’ni formativ baholash imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmaydi [4, 50–53]. Ikkinchidan, baholash mezonlari ko‘pincha o‘quvchi uchun oldindan ma’lum va tushunarli bo‘lmaydi; darslik topshiriqlari tuzilishidagi kamchiliklar, baholashda xolislik va individuallik tamoyillariga to‘liq amal qilinmasligi qayd etiladi [8, 255–257]. Uchinchidan, formativ baholash o‘qituvchidan puxta tayyorgarlik talab etadi [6,

335–346], ayni paytda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi, maktablarda texnik muammolar va internet aloqasining beqarorligi raqamli vositalardan foydalanishni cheklaydi [12, 242–245]. To‘rtinchidan, o‘qituvchining tayyorgarlik darajasi o‘quvchilar natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi: 3–4-sinflarning 1012 nafar o‘quvchisi va 54 nafar o‘qituvchi ishtirokidagi tadqiqot o‘qituvchilarning tayyorgarligi o‘quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatgan [13, 112–123].

3. Zamonaviy baholashning metodik tamoyillari. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va baholashni o‘quvchi rivojlanishiga xizmat qildirish uchun boshlang‘ich ta’limda quyidagi metodik tamoyillarga tayanish zarur:

– shaffoflik: baholash mezonlari va talablar o‘quvchiga topshiriq bajarilishidan oldin tushunarli shaklda yetkaziladi;

– xolislik: baho o‘quvchining shaxsiga emas, balki aniq mezonlar asosida uning faoliyati natijasiga qo‘yiladi [8, 255–257];

– individuallik: o‘quvchining natijasi, avvalo, uning o‘zining oldingi natijasi bilan solishtiriladi [5, 61–63];

– uzluksizlik: baholash faqat bob yoki chorak oxirida emas, balki butun o‘quv jarayoni davomida amalga oshiriladi;

– rag‘batlantiruvchilik: baholash xatoni jazolashga emas, balki uni anglash va tuzatishga, keyingi qadamni ko‘rsatishga yo‘naltiriladi;

– sub’ektlilik: o‘quvchi o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash orqali baholash jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi;

– xalqaro talablar bilan uyg‘unlik: baholash topshiriqlari va mezonlari xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi [9, 158–162; 11, 31–33].

4. Formativ baholash texnikalari. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ko‘rgazmali-obrazli tafakkuri, o‘yinga moyilligi va diqqatining tez tarqalishini hisobga olgan holda formativ baholash qisqa, ko‘rgazmali va o‘yin elementlariga boy texnikalar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich sinflarda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan texnikalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. *Boshlang‘ich sinflarda qo‘llanadigan formativ baholash texnikalari*

Texnika	Mazmuni	Darsda qo‘llash bosqichi
“Svetofor”	O‘quvchi yashil, sariq yoki qizil kartochka orqali mavzuni tushunganlik darajasini ko‘rsatadi	Yangi mavzu tushuntirilgandan so‘ng
“Bosh barmoq”	Barmoq ishorasi orqali topshiriqni tushunganini yoki yordam kerakligini bildiradi	Topshiriq berilishidan oldin
“Chiqish varaqasi”	Dars oxirida mavzu bo‘yicha bir-ikki savolga qisqa yozma javob beriladi	Darsning yakuniy bosqichi
“Ikki yulduz va bir istak”	O‘zaro baholashda ishning ikki yutug‘i va bitta takomillashtirish taklifi aytiladi	Ijodiy yoki yozma ishdan so‘ng

Texnika	Mazmuni	Darsda qo‘llash bosqichi
O‘z-o‘zini baholash varaqasi	“Bilaman”, “Bajara olaman”, “Yordam kerak” kabi bandlar bo‘yicha o‘z natijasini belgilaydi	Mavzu yoki bob yakunida
Portfolio	O‘quvchining ishlari, yutuqlari va o‘z-o‘zini baholash varaqalari to‘planadi	Chorak va o‘quv yili davomida

Formativ baholashning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi beradigan qayta aloqa (fidbek) sifatiga bog‘liq. Boshlang‘ich sinfda qayta aloqa aniq (“matndagi asosiy fikrni to‘g‘ri topding”), o‘z vaqtida, o‘quvchining shaxsiga emas, balki topshiriqqa qaratilgan va keyingi qadamni ko‘rsatuvchi (“endi uni o‘z so‘zlaring bilan ifodalab ko‘r”) bo‘lishi lozim. “Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?”, “Buni qanday isbotlaysan?” kabi savollar bilan uyg‘unlashgan formativ baholash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi [2, 187–201].

5. Mezonli baholash texnologiyasi. Mezonli baholash o‘quvchi natijasini boshqa o‘quvchilar bilan emas, balki oldindan belgilangan va ma’lum bo‘lgan mezonlar bilan solishtirishga asoslanadi. Uning boshlang‘ich ta’limdagi samaradorligi tajribada tasdiqlangan: 107 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ishtirokidagi tadqiqotda mezonli baholash tizimi uchta pedagogik shart bilan birga qo‘llanganda tajriba guruhidagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lgan [7, 345–354].

Tahlillar asosida boshlang‘ich sinflarda mezonli baholashni loyihalash va qo‘llashning quyidagi algoritmini taklif etamiz: 1) o‘quv dasturi asosida mavzu bo‘yicha kutilayotgan o‘quv natijasini aniqlash; 2) natija qaysi jihatlar bo‘yicha baholanishini ko‘rsatuvchi mezonlarni belgilash; 3) har bir mezon bo‘yicha kuzatiladigan aniq harakatlarni ifodalovchi deskriptorlarni ishlab chiqish; 4) deskriptorlarni darajalar bo‘yicha rubrika shakliga keltirish; 5) mezonlarni o‘quvchilarga ularning tiliga mos, tushunarli shaklda yetkazish; 6) baholashni amalga oshirish va izohli qayta aloqa berish; 7) natijalarni tahlil qilib, keyingi ta’lim jarayoniga tuzatishlar kiritish.

Mazkur algoritm asosida o‘qish savodxonligi darslari uchun PIRLS yondashuviga tayangan rubrika namunasini ishlab chiqdik (3-jadval). PIRLS mezonlarini ona tili va o‘qish darslariga integratsiyalash [9, 158–162] hamda matnni tushunish darajasini asosiy fikrni topish, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalar bo‘yicha baholash [10, 88–90] o‘quvchilarni xalqaro baholash talablariga tizimli tayyorlash imkonini beradi.

3-jadval. *3-sinf o‘qish savodxonligi darsida “Matnni tushunish” bo‘yicha rubrika namunasi*

Mezon	1-daraja (boshlang‘ich)	2-daraja (o‘rta)	3-daraja (yuqori)
Matndagi aniq ma’lumotni topish	Yordamchi savollar bilan ayrim ma’lumotlarni topadi	Ko‘p ma’lumotlarni mustaqil topadi, ayrimlarida xatoga yo‘l qo‘yadi	Barcha kerakli ma’lumotlarni mustaqil va aniq topadi

Mezon	1-daraja (boshlang‘ich)	2-daraja (o‘rta)	3-daraja (yuqori)
Oddiy xulosa chiqarish	Xulosani faqat o‘qituvchi yordamida chiqaradi	Xulosa chiqaradi, lekin uni matn bilan to‘liq asoslay olmaydi	Xulosa chiqaradi va uni matndan dalil keltirib asoslaydi
Asosiy fikrni aniqlash	Asosiy fikr o‘rniga alohida epizodni aytadi	Asosiy fikrni qisman to‘g‘ri ifodalaydi	Asosiy fikrni o‘z so‘zlari bilan aniq ifodalaydi
Matnga munosabat bildirish	Munosabatini “yoqdi / yoqmadi” bilan cheklaydi	Munosabatini bildirib, bitta sabab keltiradi	Munosabatini bildirib, uni matndan misollar bilan asoslaydi

Rubrika o‘quvchiga baholashdan oldin tanishtiriladi va u o‘z-o‘zini hamda o‘zaro baholashda ham qo‘llanadi. Bunda o‘quvchi qaysi mezon bo‘yicha qaysi darajada ekanini va keyingi darajaga o‘tish uchun nima qilish kerakligini aniq ko‘radi. Xalqaro tajribani o‘rgangan tadqiqotchilar PIRLS tipidagi topshiriqlarni milliy test tizimiga kiritishni ham tavsiya etadi [9, 158–162].

6. Raqamli baholash vositalari. Raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilar natijalarini tezkor qayd etish, o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [14, 184–189]. Boshlang‘ich sinflarda Kahoot!, Quizlet kabi interaktiv platformalar va interaktiv doskalar tezkor qayta aloqa berish hamda o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishda samarali qo‘llanmoqda [12, 242–245]. Shu bilan birga, raqamli baholash samaradorligi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish zarur: raqamli vositalar an’anaviy usullarni to‘liq almashtirmasligi, balki ularni to‘ldirishi; topshiriqlar o‘quvchilar yoshiga va raqamli savodxonlik darajasiga mos bo‘lishi; ekran oldida ishlash vaqtining me’yorlanishi; o‘quvchilar shaxsiy ma’lumotlarining himoya qilinishi; o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi muntazam rivojlantirib borilishi [12, 242–245; 13, 112–123].

7. Baholash texnologiyalarining metodik asoslari modeli. Yuqoridagi tahlillar natijasida boshlang‘ich ta’limda zamonaviy baholash texnologiyalarining metodik asoslarini o‘zaro bog‘liq oltita komponentdan iborat model sifatida ifodalash mumkin (4-jadval).

4-jadval. *Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy baholash texnologiyalarining metodik asoslari modeli*

Komponent	Mazmuni
Maqsadli	O‘quvchining rivojlanishini kuzatish, qo‘llab-quvvatlash va o‘quv jarayonini o‘z vaqtida tuzatish
Me’yoriy-mazmuniy	O‘quv dasturida belgilangan kutilayotgan natijalar, baholash mezonlari va deskriptorlar
Tamoyillar	Shaffoflik, xolislik, individuallik, uzluksizlik, rag‘batlantiruvchilik, sub’ektlilik, xalqaro talablar bilan uyg‘unlik
Texnologik	Diagnostik, formativ, summativ, mezonli, differensial va raqamli baholash texnologiyalari; rubrika, portfolio, o‘z-o‘zini baholash varaqalari

Komponent	Mazmuni
Sub’ektlar	O‘qituvchi (baholashni tashkil etadi), o‘quvchi (o‘z-o‘zini va o‘zaro baholaydi), ota-ona (natijalardan xabardor bo‘ladi va qo‘llab-quvvatlaydi)
Natijaviy	O‘zlashtirish sifatining oshishi, o‘quv motivatsiyasining kuchayishi, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasining shakllanishi

Modelning komponentlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq: maqsad mezonlarni, mezonlar esa texnologiya va vositalar tanlovini belgilaydi; natijalar tahlili esa navbatdagi o‘quv maqsadlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shu tariqa baholash o‘quv jarayonidan ajralgan nazorat bosqichi emas, balki uning uzluksiz tarkibiy qismiga aylanadi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, boshlang‘ich ta’limda zamonaviy baholash texnologiyasi baholash maqsadi, mezonlari, vositalari, protseduralari va natijalardan foydalanishning yaxlit tizimi bo‘lib, uning asosini formativ va summativ baholashning uyg‘unligi tashkil etadi. Ikkinchidan, boshlang‘ich sinflarda baholash amaliyotida yakuniy bahoning ustunligi, mezonlarning shaffof emasligi hamda o‘qituvchilarning formativ va raqamli baholashga tayyorgarligi yetarli emasligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uchinchidan, shaffoflik, xolislik, individuallik, uzluksizlik, rag‘batlantiruvchilik, sub’ektlilik va xalqaro talablar bilan uyg‘unlik tamoyillari zamonaviy baholashning metodik asosini tashkil etadi. To‘rtinchidan, yoshga mos formativ baholash texnikalari, mezon va deskriptorlarni loyihalash algoritmi hamda PIRLS yondashuviga asoslangan rubrikalar boshlang‘ich sinflarda baholashni o‘quvchi rivojlanishiga yo‘naltirish imkonini beradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: 1–4-sinflar uchun formativ va mezonli baholash bo‘yicha metodik qo‘llanma ishlab chiqish; boshlang‘ich sinf fanlari bo‘yicha namunaviy rubrikalar bankini yaratish; o‘qituvchilarning malaka oshirish dasturlariga formativ, mezonli va raqamli baholash bo‘yicha amaliy modullarni kiritish; o‘quvchilar natijalarini ota-onalarga tushunarli shaklda yetkazish tartibini joriy etish. Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan model va metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “5–9-sinf o‘quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 1-mh-son buyrug‘i. 2025-yil 4-fevral (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 05.02.2025-y. 2117-2-son bilan ro‘yxatga olingan).

2. Parpiyev O., Pozilov H. Formativ baholash orqali 3-sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatish usullari // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – Vol. 13. – B. 187–201. DOI: 10.54613/ku.v13i.1055.

3. Allaberdiyeva F.A. Boshlang‘ich ta’limda baholash tizimi: formativ baholashning samaradorligi // Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi materiallari. – 2026. – B. 172–174. DOI: 10.5281/zenodo.20539632.

4. Xusanova N.B., Adilova S.N. Summativ va formativ baholash tizimi // Uzbek Scholar Journal. – 2024. – Vol. 28. – B. 50–53.

5. Bekbo‘sinova L.X. Boshlang‘ich sinf darslarida differensial baholashning imkoniyatlari // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, №6. – B. 61–63.

6. Luna-Acuña M.L., Bazán-Linares M.V., Peralta-Roncal L.E., Gaona-Portal M.P. Impacto de la evaluación formativa en la educación primaria // Revista Docentes 2.0. – 2023. – Vol. 16, №2. – P. 335–346. DOI: 10.37843/rted.v16i2.431.

7. Амирова А.А., Измагамбетова Р.К. Формирование самооценки детей начальной школы на основе критериальной оценки // Вестник КазНПУ им. Абая. Серия «Педагогические науки». – 2022. – №2(74). – С. 345–354. DOI: 10.51889/2022-2.1728-5496.38.

8. Elliyev H. O‘quvchilar bilimini baholash ilmiy pedagogik muammo sifatida // O‘zMU xabarlari. – 2024. – №1/10/1. – B. 255–257.

9. Lepesova M.A. PIRLS baholash mezonlari va ularni boshlang‘ich sinf darslariga integratsiyalash usullari // Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Vol. 2, №5. – B. 158–162.

10. Akramova I. PIRLS mezonlari asosida o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini baholash usullari va metodikasi // Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Vol. 4, №19. – B. 88–90.

11. Mirzaliyeva G., Umarov E. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimini baholashda xalqaro baholash tadqiqotlarining o‘rni // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, №5. – B. 31–33.

12. Azimova N. Raqamli resurslar va multimedia vositalaridan foydalanish // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, №10. – B. 242–245.

13. Волкова Л.В., Волкова Ю.С. Готовность учителей к формированию цифровой грамотности школьников: результаты диагностики // Научно-педагогическое обозрение. – 2023. – №1(47). – С. 112–123. DOI: 10.23951/2307-6127-2023-1-112-123.

14. Соловьева О.В., Кокорова С.Д. Развитие познавательных способностей детей младшего школьного возраста в условиях цифровизации образования // Вестник Северо-Кавказского федерального университета. – 2022. – №1(88). – С. 184–189. DOI: 10.37493/2307-907X.2022.1.21.